



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

"Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar"

Umumiy o'rta ta'lim maktab 11-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari

O'zganing mulkini talon-taroj qilish

O'zganing mulkini talon-taroj qilish — bu shaxsning boshqa shaxs yoki tashkilot mulkini **noqonuniy ravishda egallashi, o'g'irlashi yoki talon-taroj qilishi** bilan ifodalanadigan jinoiy qilmishdir. Ushbu jinoyatlar turli shakllarda sodir bo'lishi mumkin bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida qat'iy jazo belgilangan, chunki bu jinoyatlar iqtisodiy xavfsizlikka hamda jamiyatning moliyaviy barqarorligiga tahdid soladi.



O'g'rilik

O'zganing mol-mulkini **yashirin ravishda talon-taroj qilish**. Jinoyatchi biror shaxs yoki tashkilotga tegishli mulkni sohibining bilimi va roziligi bo'lmagan holda olib qo'yadi.



Firibgarlik

Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mol-mulkini qo'lga kiritish. Jabrlanuvchi o'z mulkini ixtiyoriy topshiradi, lekin aldov asosida.



Talunchilik

O'zganing mol-mulkini **zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib** ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish. Bu jinoyat eng xavfli shakllardan biri hisoblanadi.



Mol-mulkni nobud qilish

O'zganing mol-mulkiga **qasddan shikast yetkazish yoki uni yo'q qilish**. Bu harakat ham jinoyat sifatida baholanib, mulk egasiga moddiy zarar yetkazadi.

Keys 1: Kassirning Firibgarligi

Vaziyat mazmuni

Yirik savdo markazida ishlayotgan 18 yoshli kassir elektron to'lov tizimidagi texnik nosozliklardan foydalanib, mijozlar tomonidan amalga oshirilgan to'lovlarning bir qismini kassaga to'liq kirim qilmay, yashirin ravishda o'zlashtira boshladi.

U o'z harakatlarini yashirish maqsadida elektron ma'lumotlarni o'zgartirish, hisobotlarni moslashtirish va nazoratni chalg'itishga uringanligi aniqlangan. Bir necha oy davomida savdo markaziga katta miqdorda moddiy zarar yetkazildi.

Ichki audit va moliyaviy nazorat tekshiruvlari davomida kassadagi tushumlar bilan elektron tizim ma'lumotlari o'rtasidagi tafovutlar fosh etildi.

Tahlil savollari va javoblari

- 1 Jinoyat shakli — Rastrata (o'zlashtirish)**
Kassir ishonib topshirilgan mablag'larni o'zlashtirgan — bu talon-toroj jinoyatining maxsus shakli.
- 2 Obyektiv tomon**
To'lovlarni kassaga kiritmaslik, ma'lumotlarni o'zgartirish, nazoratni chalg'itish — faol jinoiy harakatlar.
- 3 Subyektiv tomon — To'g'ridan-to'g'ri qasd**
Shaxs bilgan holda va qasddan harakat qilgan, shaxsiy boyluk orttirishni maqsad qilgan.
- 4 Nima uchun jinoyat, intizomiy buzarlilik emas?**
Moddiy zarar yirik miqdorda, qasd mavjud, soxtalik qilingan — bu Jinoyat kodeksida jinoyat sifatida belgilangan.

Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar

Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar — davlat organlari, mahalliy hokimiyat yoki jamoat birlashmalarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi xatti-harakatlardir. Bu jinoyatlar davlat boshqaruvi samaradorligiga **salbiy ta'sir ko'rsatadi** va qonun ustuvorligini zaiflashtiradi.

Hokimiyat vakiliga qarshilik

Yig'ilishlar va mitinglar o'tkazish tartibini buzish, hokimiyat vakilining qonuniy talablariga bo'ysunmaslik, davlat organlarining faoliyatiga to'sqinlik qilish.

Hujjatlarni qalbakilashtirish

Rasmiy hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarni tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish. Qonuniy qarorlarni bajarmaslik va soxtalashtirish.

Fuqarolarni aldash yoki majburlash

Huquqiy jarayonlarni buzish orqali moddiy yoki nomoddiy manfaat ko'rish. Davlat boshqaruviga xalaqit beradigan har qanday majburlash harakati.



Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar nafaqat alohida shaxslarga, balki butun davlat tizimiga, fuqarolarning huquqlariga va iqtisodiy barqarorlikka zarar yetkazadi.



Keys 2: Moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish

Vaziyat tahlili

Kichik korxonada moliyaviy hisobotlar uchun mas'ul mansabdor shaxs davlat organlariga taqdim etiladigan hujjatlarda daromadlarning bir qismini yashirdi va ayrim xarajatlarni sun'iy ravishda oshirib ko'rsatdi. Natijada soliqqa tortiladigan baza kamaytirildi, davlat budjetiga zarar yetkazildi.

Boshqaruv tartibiga qarshi namoyon bo'lishi

Davlat organlariga yolg'on ma'lumot taqdim etish — bu qonunchilikni bevosita buzish va boshqaruv tizimiga xalaqit berishdir.

Nima uchun jinoyat?

Davlat organlari to'g'ri ma'lumotga asoslanib qarorlar qabul qiladi. Noto'g'ri ma'lumot budjetga, iqtisodiy rejalashtirishga va adolatli soliqqa zarar yetkazadi.

Obyektiv va subyektiv jihatlar

Obyektiv tomon —	Hisobotlarni buzib ko'rsatish, yolg'on ma'lumot taqdim etish, davlat manfaatlariga zarar
Subyektiv tomon —	To'g'ridan-to'g'ri qasd — korxonaga uchun soliqni kamaytirishni maqsad qilgan
Obyekt —	Davlat boshqaruvi tartibi, soliq tizimi, davlat byudjeti
Subyekt —	Mansabdor shaxs — maxsus javobgarlikka ega
Oqibat —	Davlat budjetiga moddiy zarar, boshqaruv tizimiga putur

③ Davlat organlariga noto'g'ri ma'lumot taqdim etish O'zbekiston JKda alohida jinoyat tarkibi sifatida belgilangan va qat'iy jazoga tortiladi.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar — bu jamiyatdagi tinchlik-osoyishtalik, fuqarolarning xavfsizligi va jamoat joylaridagi normal tartibni buzishga qaratilgan xatti-harakatlardir. Bunday harakatlar natijasida odamlarning osoyishta hayoti izdan chiqadi, fuqarolarda qo'rquv va xavotir paydo bo'ladi hamda jamoat xavfsizligiga zarar yetadi.



Jamoat joyida tartibsizlik

Baland ovozda shovqin qilish, atrofdagilarga xalaqit berish, janjal chiqarish, ommaviy tortishuv yoki urush-janjallarni yuzaga keltirish. Ko'cha, savdo markazi, stadion yoki boshqa jamoat joyida agressiv xatti-harakatlar jamoat tartibiga qarshi harakat hisoblanadi.



Zo'ravonlik va qo'rqitish

Boshqa fuqarolarga nisbatan tahdid qilish, agressiv harakatlar qilish yoki ularda qo'rquv uyg'otadigan vaziyatlarni yuzaga keltirish. Natijada fuqarolar o'zini xavfsiz his qilmaydi va jamoat xavfsizligiga tahdid tug'iladi.



Noqonuniy yig'ilishlar va provokatsiya

Noqonuniy yig'ilishlar, tartibsiz ommaviy harakatlar, ig'vogarlik va provokatsion harakatlar. Bunday harakatlar odamlarni tartibsizlikka undash va jamiyatdagi barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatish maqsadida amalga oshirilishi mumkin.

Keys 3: Ommaviy tadbirda tartibsizlik

Shaharda o'tkazilayotgan ommaviy tadbir davomida bir guruh yoshlar o'zini agressiv tutib, jamoat tartibini buzuvchi harakatlarni sodir etdi: baland ovozda baqirish, odamlarni itarish, buyumlarni uloqtirish. Fuqarolarning erkin harakatlanishiga to'sqinlik qilindi, ayrimlar jarohat oldi, vahima paydo bo'ldi.

Jinoyat belgilari:

Jamoat joyida sodir etilishi

Harakatlar ko'pchilik fuqarolar to'plangan ochiq maydonda amalga oshirilgan — bu jinoyatni og'irlashtiruvchi holat.

Fuqarolar osoyishtaligiga zarar

Odamlar erkin harakatlanish, xavfsiz dam olish huquqidan mahrum etildi. Jarohatlar ham yetkazildi.

Xavfsizlikka tahdid

Fuqarolar orasida vahima yuzaga keldi, ba'zilar tan jarohati oldi — bu jamoat xavfsizligiga bevosita zarar.

Normal tartibning buzilishi

Tartibli o'tayotgan ommaviy tadbir to'xtatildi, ijtimoiy hayot izdan chiqdi.

Jamoat tartibini buzish oddiy intizomiy buzarlardan farqli o'laroq, quyidagi sabablar tufayli **jinoyat** sifatida baholanadi:

- Harakatlar qasddan va uyushgan tarzda sodir etilgan
- Fuqarolarga jismoniy zarar yetkazilgan (jarohat)
- Ommaviy vahima va qo'rquv muhiti yaratilgan
- Davlat tomonidan ruxsat etilgan tadbirga to'sqinlik qilingan
- Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatiga xalaqit berilgan

Agar bunday holatlarning oldi olinmasa, jamiyatda ommaviy tartibsizliklar, fuqarolararo mojarolar va davlat hokimiyatiga ishonchsizlik kuchayib boradi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikka jiddiy tahdid tug'diradi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar

Mediasavodxonlik

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi insonlar hayotini yengillashtirgan bo'lsa-da, ular orqali sodir etiladigan jinoyatlar soni ham ortib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron to'lov tizimlari va mobil ilovalardan noto'g'ri foydalanish fuqarolarning mol-mulki, shaxsiy ma'lumotlari va axborot xavfsizligiga **jiddiy tahdid tug'dirishi** mumkin.



Shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash

Jinoyatchilar soxta saytlar, ijtimoiy tarmoqlar yoki messengerlar orqali telefon raqami, bank kartasi ma'lumotlari, maxfiy kodlar yoki parollarni qo'lga kiritadi. Keyinchalik bu ma'lumotlar noqonuniy maqsadlarda ishlatiladi.



Onlayn firibgarlik

Soxta havolalar yuborish, yolg'on aksiyalar tashkil qilish yoki bank xodimi sifatida o'zini tanishtirish orqali fuqarolarni aldab, bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini noqonuniy yechib olish.



Soxta axborot tarqatish

Yolg'on xabarlar, tasdiqlanmagan ma'lumotlar yoki ataylab chalg'ituvchi postlar ijtimoiy tarmoqlar orqali tez tarqaladi. Natijada odamlar noto'g'ri ma'lumotga ishonishi, vahima va adashish holatlari yuzaga kelishi mumkin.



1 Kiber-tovlamachilik

Shaxsiy ma'lumotlarni egallagan holda ularni oshkor qilish yoki tizimlarni ishdan chiqarish bilan qo'rqitib, pul yoki boshqa manfaatlar talab qilish. Bu kiberjinoyatning yangi va xavfli shaklidir.

Mediasavodxonlik — asosiy himoya quroli

Mediasavodxonlik nima?

Mediasavodxonlik — bu axborotni **tanqidiy fikrlash asosida tahlil qilish**, uning ishonchliligini tekshirish va yolg'on ma'lumotlarni ajrata olish ko'nikmasidir. Bu ko'nikma ayniqsa yoshlar uchun hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda. Mediasavodli shaxs kiberjinoyatchilarning asosiy nishoniga aylanmaydi, chunki u axborotni tanqidiy ko'zdan kechiradi va shubhali hollarda ehtiyot bo'ladi.

Internetdagi har qanday ma'lumotga darhol ishonib ketmaydi

Axborot manbasini tekshiradi

Shaxsiy ma'lumotlarini begona shaxslarga bermaydi

Shubhali havola va xabarlardan ehtiyot bo'ladi

Ijtimoiy tarmoqlarda xavfsizlik qoidalariga amal qiladi

Keys 4: Soxta Sahifa Orqali Firibgarlik

18 yoshli shaxs ijtimoiy tarmoqlarda soxta sahifa ochib, o'zini tanilgan tashkilot vakili sifatida tanishtirdi. U aksiyalar, yutuqli tanlovlar haqida yolg'on ma'lumotlar tarqatib, fuqarolardan bank kartasi raqamlari va maxfiy kodlarni oldi. Keyinchalik ularning hisoblaridan pul mablag'lari yechib olindi.

Jihat	Tavsif
Jinoyat turi	Kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish, firibgarlik
Obyektiv tomon	Soxta sahifa, yolg'on ma'lumot, pul o'g'irlash
Subyektiv tomon	To'g'ridan-to'g'ri qasd, moddiy manfaat ko'rish
Oqibat	Fuqarolarga moddiy zarar, shaxsiy ma'lumotlar xavf ostida
Profilaktika	Mediasavodxonlik, parollarni himoya qilish, manbani tekshirish



Yoshlarning mediasavodxon bo'lishi muhim — ular kiberjinoyatchilarning asosiy nishoniga aylanishi mumkin. Axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirish bu jinoyatlarning oldini oladi.

Korrupsiya va uning belgilari

Korrupsiya — bu mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqei, vakolati yoki lavozimidan **shaxsiy manfaat yo'lida qonunga xilof ravishda foydalanishi**dir. Bunday holatda mansabdor shaxs davlat, jamiyat yoki xizmat manfaatlaridan ko'ra o'zining moddiy yoki boshqa shaxsiy manfaatlarini ustun qo'yadi.

Vakolatni suiiste'mol qilish

Mansabdor shaxs xizmat vazifasini halol bajarish o'rniga, vakolatidan noto'g'ri foydalanadi yoki qonunda belgilangan tartiblarni buzadi.

Pora olish va berish

Muayyan xizmat bajarish yoki qaror qabul qilish evaziga noqonuniy moddiy manfaat olish yoki berish.

Boshqalarning huquqini cheklash

Ayrim shaxslarga noqonuniy ustunlik berish, tanish-bilishchilik qilish yoki adolatli tanlov va raqobatga to'sqinlik qilish.

Yashirin qarorlar qabul qilish

Qarorlar qonuniy mezonlarga emas, balki shaxsiy manfaatlarga asoslanib va yashirin tarzda qabul qilinadi.



Korrupsiya jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy rivojlanish, adolat va qonun ustuvorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. U fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini kamaytiradi va inson huquqlarining cheklanishiga olib keladi.

Korrupsiyaga olib keluvchi sabablar



Byurokratik to'siqlar

Davlat xizmatlari yoki hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonlari ortiqcha murakkab, uzoq va tushunarsiz bo'ladi. Fuqarolar ko'p bosqichli tartiblar va sun'iy kechiktirishlarga duch kelganda, "tezroq hal qilish" uchun noqonuniy yo'llarga murojaat qilishga urinadi. Bu esa korrupsion holatlar yuzaga kelishiga sharoit yaratadi.



Huquqiy ongsizlik

Ayrim fuqarolar o'z huquqlarini yetarlicha bilmagani sababli noqonuniy harakatlarga befarq qarashi mumkin. Ba'zan odamlar pora berishni "muammoni hal qilishning oddiy usuli" deb qabul qiladi. Bu esa jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat shakllanishiga to'sqinlik qiladi.



Nazorat va shaffoflikning yetishmasligi

Davlat organlari faoliyati ochiq bo'lmasa, qarorlar yashirin tarzda qabul qilinsa yoki moliyaviy xarajatlar ustidan samarali nazorat o'rnatilmasa, mansabdor shaxslarning vakolatni suiiste'mol qilish xavfi ortadi. Shaffoflik mavjud bo'lmagan joyda noqonuniy kelishuvlar osonlashadi.



Shaxsiy manfaatdorlik

Mansabdor shaxs o'z xizmat vazifasidan shaxsiy foyda olishga intilishi, noqonuniy moddiy manfaat orttirishni maqsad qilishi mumkin. Shaxsiy manfaatni davlat va jamiyat manfaatidan ustun qo'yish korrupsion xatti-harakatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Keys 5: Mansab vakolatini suiiste'mol qilish

Vaziyat mazmuni:

Davlat tashkilotida tadbirkorlarga ruxsatnoma va hujjatlarni rasmiylashtirish bilan shug'ullanadigan mansabdor shaxs ayrim tadbirkorlarga navbatdan tashqari yordam ko'rsatish va ruxsatnomalarni tezlashtirish evaziga moddiy manfaat olib keldi.

Natijada pul yoki boshqa manfaat bergan tadbirkorlarga ustunlik yaratildi, qolgan murojaatchilar esa hujjatlarining uzoq vaqt ko'rib chiqilishiga duch keldi. Bu holat davlat xizmatlarida tenglik va adolat tamoyillarining buzilishiga sabab bo'ldi.

Qonunchilikka ko'ra, barcha murojaatlar belgilangan tartib va muddat asosida teng ravishda ko'rib chiqilishi kerak edi.

Korrupsiya belgilari tahlili

1 Vakolatni suiiste'mol qilish

Mansabdor shaxs o'z lavozim vakolatini qonuniy maqsadlarda emas, balki shaxsiy manfaati uchun ishlatdi.

2 Tenglik tamoyilining buzilishi

Barcha fuqarolar teng huquqqa ega bo'lishiga qaramay, pul to'laganlar imtiyoz oldi — bu adolatsizlik va diskriminatsiyadir.

3 Ijtimoiy xavflilik

Davlatga bo'lgan ishonch kamayadi, tadbirkorlar qonuniy yo'l bilan ish yuritish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

4 Tizimli xavf

Agar bunday holatlar ko'paysa, davlat boshqaruvi adolatli bo'lmaydi, investitsiya muhiti yomonlashadi va iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qilinadi.

Pora olish, berish va vositachilik

Pora olish

Mansabdor shaxsning o'z lavozim vakolatidan foydalangan holda noqonuniy moddiy yoki boshqacha naf ko'rishi. Pul, sovg'a, xizmat yoki boshqa moddiy qimmatliklar shaklida bo'lishi mumkin. O'zbekiston JKda eng og'ir jazo belgilangan jinoyatlardan biri.



Pora berish

Shaxsning mansabdor shaxsga o'z manfaatini ko'zlab pul, sovg'a yoki boshqa moddiy qimmatliklar taklif etishi. Pora beruvchi ham jinoyatchi sanaladi va javobgarlikdan qochib qutula olmaydi.



Poraga vositachilik

Boshqa shaxslarning pora olishi yoki berishiga yordam ko'rsatish, ular o'rtasida bog'lovchi vazifasini bajarish. Vositachi ham to'liq jinoyiy javobgarlikka tortiladi.

Keys 6: Oliy ta'lim muassasasiga kirish jarayonida pora

Abituriyent o'qishga kirish uchun yordam izlaganda vositachi unga pul evaziga masalani "hal qilib berish"ini va'da qildi. Olingan pulning bir qismi vositachida qoldi, qolgani mansabdor shaxsga yetkazildi. Natijada qabul jarayonida qonuniy tartib va tenglik prinsipi buzildi.

Bu vaziyatda uchta sub'ekt jinoyatda ishtirok etdi:

- **Abituriyent va uning yaqinlari** — pora berdi (pora beruvchi)
- **Vositachi** — pora olish-berishga ko'maklashdi (vositachi)
- **Mansabdor shaxs** — noqonuniy manfaat oldi (pora oluvchi)

⚠ Pora jinoyati jamiyat uchun xavfli, chunki: ta'lim tizimida adolatsizlik yuzaga keladi; haqiqiy bilimli va layoqatli yoshlar o'qishga kira olmaydi; mansabdor shaxsning o'z vazifasiga xiyonati qonun ustuvorligini buzadi; jamiyatda korrupsiyaga murosalari munosabat kuchayadi.

Bunday jinoyatlarning oldini olish uchun: raqamli va shaffof qabul tizimlari joriy etilishi; imtihon jarayonlariga mustaqil nazorat o'rnatilishi; fuqarolik nazorati mexanizmlari kuchaytirilishi; pora faktlari bo'yicha xabar berish uchun maxfiy kanallar tashkil etilishi lozim.